

MAKTAB O'QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

M.Isakova

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari doktori (DSc),

A.Xaydaraliyev

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasasida yuqori sinf o'quvchilari tomonidan kasb tanlash motivlarining xususiyatlarini o'rganish maqsadida adabiyotlar tahlil keltirilgan. Bundan tashqari, Farg'ona tumani 19-sonli o'rta ta'lim maktabining 86 nafar 10-11-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan eksperimental tadqiqot, uning usullari, natijalari to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar va iboralar: *kasb tanlash, motiv, psixologik xususiyatlar, tadqiqot, xulq-atvor.*

Аннотация: *В данной статье представлен анализ литературы с целью изучения особенностей мотивов выбора профессии старшеклассниками общего среднего образовательного учреждения. Кроме того, представлено экспериментальное исследование, проведенное с участием 86 учащихся 10-11 классов средней школы № 19 Ферганского района, его методы и результаты.*

Ключевые слова и фразы: *выбор профессии, мотивация, психологические характеристики, исследование, поведение.*

Annotation: *This article presents an analysis of the literature in order to study the characteristics of the motives for choosing a profession by high school students of a general secondary educational institution. In addition, an experimental study conducted with the participation of 86 students in grades 10-11 of secondary school No. 19 in the Fergana region, its methods and results are presented.*

Key words and phrases: *choice of profession, motivation, psychological characteristics, research, behavior.*

KIRISH

Jadallik bilan o'zgarib va rivojlanib borayotgan davrda kasb tanlash va namunali kadr bo'lish dolzarb hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ham tub maqsadi ishsizlikni kamaytirish va sifatli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Zamonaviy jamiyatda turli kasb mutaxassislariga qo'yiladigan talablar darajasi o'sib bormoqda. Har qanday kasbning mashhurligi har doim jamiyatdagi voqealarga va mehnat bozorida talabga bog'liq. O'rta maktab o'quvchilarining kasbiy o'zini o'zi belgilashi, ko'pincha, ongsiz ravishda, ota-onalar va do'stlar ta'siri ostida amalga oshiriladi, bu esa korxonalarda kadrlar almashinuviga, yoshlarning professional tanlovining buzilishiga olib keladi. Shaxsiy psixologik xususiyatlar tufayli noto'g'ri tanlangan kasbning salbiy oqibatlari shaxsning

o'ziga ham, uning ichki muhitiga ham ta'sir qiladi. Ular depressiv holatlarda, dunyoni salbiy idrok etishda, tajovuzda, tushkunlikda namoyon bo'ladi. Bu o'rta maktab o'quvchilarini kasbiy o'zini o'zi belgilash, kasb tanlashda ongli motivlarni shakllantirish masalalari to'g'risida xabardor qilish zarurligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Motivatsiya psixologiyaning asosiy tushunchasi sifatida taniqli xorijiy va mahalliy mualliflar tomonidan o'rganilgan: Z.Freyd, H.Xekkauzen, J.M.Atkinson, G.Allport, K.Levin, L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.G.Aseev, A.N.Leontiev, P.M.Jeykobson, A.K.Markova va boshqalar. "Motiv" va "motivatsiya" tushunchalarining o'zgaruvchanligi ushbu jihatni o'rganish qiyinligini belgilaydi.

Xorijiy psixologiyada "motiv" tushunchasining mazmunini ochib berish ma'lum bir tadqiqotchi joylashgan kontseptual qoidalarga bog'liq. G. Allport har qanday harakat, har qanday inson faoliyati motivga aylanishi mumkin degan xulosaga kelgan. K.Levinning "kvazi-ehtiyoj"(biologic va ijtimoiy ehtiyojlar) tushunchasi odamda biron bir niyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan dinamik holat nuqtai nazari sifatida tushuniladi. X.Xekxauzenning yozishicha, odamlar ma'lum motivlarning individual namoyon bo'lishida farq qiladi.

Rus psixologiyasida motiv - bu murakkab ko'p darajali tizim bo'lib, shaxsning hayotini, uning faoliyatini tartibga soluvchi deb tushuntiriladi. Motivatsiya muammosining murakkabligi va ko'p qirraliligi, uning mohiyatini, tabiatini, tuzilishini, shuningdek, uni o'rganish usullarini tushunishga ko'p yondashuvlarni belgilaydi. V.I.Kovalevning so'zlariga ko'ra, inson hayotini tartibga solishning eng yuqori darajasi - ongli-irodali faoliyatdir. Motivatsion soha insonni faoliyatga yo'naltiradigan avtomatik ravishda amalga oshiriladigan munosabat, yo'nalish, ideal sohani o'z ichiga oladi.

S.L.Rubinshteyn o'zining ilmiy tadqiqotlarida motivni xulq-atvor va faoliyat uchun ongli turtki sifatida izohlagan. A.N.Leontev motivni insonning ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan obyekt sifatida belgilaydi.

Motivatsiya muammosi bo'yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, motivlarni o'rganishga xorijiy va mahalliy yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, aksariyat mualliflar ularni insonning xulq-atvori va faoliyatini belgilovchi psixologik omillar to'plami, tizimi sifatida izohlashadi.

Katta maktab yoshi turli motivlarni shakllantirish uchun psixologiya nuqtai nazaridan qiziq hisoblanadi. U shaxsning kelajakdagi hayotini shakllantirishdagi asosiy yoshlardan biridir. Ushbu bosqichda yoshlar o'zlari uchun hayotdagi ustuvorliklarni, professional yo'nalishni tanlaydilar. Shuningdek, hayotda o'zini o'zi belgilash, o'zini yaxlit shaxs sifatida anglash istagi mavjud ham bo'ladi.

O'rta maktab o'quvchilari tomonidan kasbni ongli ravishda tanlash muammosi zamonaviy jamiyatda dolzarb va juda murakkabdir. O'rta maktab o'quvchilari tomonidan kasb tanlash motiviga ota-onalarning motivlari, jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy vaziyatlar, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar ta'sir qiladi. Kasb tanlashning muvaffaqiyati yoshlarning o'z manfaatlarini, qobiliyatini, o'z hayotini vaqt nuqtai nazaridan

ko'rish qobiliyati bilan qanday bog'lashiga, uning qarorining haqiqiy sabablarini tushunish va anglashga bog'liq. Shaxsiy imkoniyatlarini anglash, qaror qabul qilish mexanizmini shakllantirish bo'yicha maqsadli tadbirlarni amalga oshirish zarur. Faqat shunday sharoitda o'rta maktab o'quvchisi mustaqil tanlov qila oladi.

Kasblarning hilma-hilligi juda katta va ko'p hollarda, A.A.Verbitskiy ta'kidlaganidek, ularni hamma egallashi mumkin. Biror kishi kasbni tanlashi uchun imkoniyatida bo'lgan ko'plab tanlovlardan voz kechishi kerak, chunki u haqiqatan ham hamma narsani emas, balki faqat bir ishni qila oladi. Shunday qilib, bolada kelajakdagi kasbni tanlash muammosi paydo bo'ladi.

M.M.Abdullayeva kasb tanlash bir martalik harakat emas, balki uzoq davom etadigan jarayon ekanligini ta'kidlaydi, shuning uchun uni, ko'pincha, kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoni deb atashadi.

V.G.Aseyevning ta'kidlashicha, 15-16 yoshdagi o'rta maktab o'quvchilarining aksariyati o'z kasblarini tanlashga psixologik jihatdan tayyor emaslar, ularning aksariyati kasb tanlashda qo'rquvni his qilishadi, tanlov mas'uliyatini ota-onalarga yuklashga harakat qilishadi.

R.S.Vaysmanning fikriga ko'ra, kasb tanlashga tayyorlik o'qituvchilar tomonidan maktabning birinchi bosqichlaridan boshlab shakllanishi kerak. Hatto boshlang'ich sinflarda ham bolalar turli xil kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kasblar, fazilatlar bilan tanishadilar. Kelajakda psixologlar va o'qituvchilar tomonidan o'spirinlarga faol o'zini o'zi o'rganishda, kasblar dunyosi bilan yanada tanishishda, mehnat bozorini o'rganishda yordam berish tashkil etiladi. O'rta maktabda kasb olish yo'llari, uni tanlashda xatolar haqida mavzular ko'tariladi. Ushbu ish o'quvchilarga keyingi taqdirni tanlashda o'qituvchilarning pedagogik qo'llab-quvvatlashi va ishtirokini his qilishlariga yordam beradi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, o'rta maktab o'quvchilari tomonidan kasbni ongli ravishda tanlash muammosi zamonaviy jamiyatda dolzarb va juda murakkab ekanligini ta'kidlaymiz. Bularning barchasi bizni eksperimental tadqiqotlar o'tkazishga olib keldi.


Tadqiqot obyekti: kasb tanlash motivlari.

Tadqiqot mavzusi: o'rta maktab o'quvchilari tomonidan kasb tanlash motivlarining xususiyatlari.

Ishning maqsadi: umumiy o'rta ta'lim muassasasida yuqori sinf o'quvchilari tomonidan kasb tanlash motivlarining xususiyatlarini o'rganish.


Metodlar va materiallar. Bizning eksperimental tadqiqotimiz Farg'ona tumani 19-sonli o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tdi. Tadqiqotda maktabning 86 nafar 10-11-sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. 11-sinfni shartli ravishda №1-guruh, 10-sinfni esa №2-guruh deb nomladik. Ushbu maktabda "mening kelajakdagi kasbim" mavzusida tanlov o'tkazildi. Natijada, ushbu maktab o'quvchilari kelajakdagi kasb haqida bilimga ega bo'ldilar, ular kasb va ichki motivni ongli ravishda tanlash qobiliyatini rivojlantirdilar.

Eksperimentda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun shaxsiy anketa ishlatildi. Bu S.S.Grinshpun tomonidan ishlab chiqilgan "kasb tanlash motivlari" metodikasidir. Bizning eksperimental tadqiqotimiz tizimli-kontekstli psixodiagnostika (UPC diagnostikasi) metodologiyasiga asoslangan.



1-rasm. 11-sinf o'quvchilarining kasb tanlash motivlarining foiz ko'rinishidagi nisbati

Natijalar. "Kasb tanlash motivlari" (S.S.Grinshpun) metodi yordamida olingan tadqiqot natijalarning miqdoriy tahlili shuni ko'rsatdiki, 1-guruh 11-sinf o'quvchilarining ko'pchiligida "ishbilarmonlik munosabati" motivlari ustunlik qilgan (59,6%), ya'ni, o'quvchilar ma'lumot izlash, ishbilarmonlik aloqalari va ba'zi odamlar bilan o'zaro munosabatlar, biron bir bo'linma ishini tashkil etishga bo'lgan qiziqish asosida kasb tanlaganlar. Kasbga bo'lgan "ijodiy munosabat" motivi esa 17% foiz respondentlarda namoyon bo'ldi. Bu ularda o'zlarining ijodiy qobiliyat va imkoniyatlarini yuzaga keltirishga bo'lgan ishtiyoq bilan izohlanadi. "Moddiy farovonlik" motivining o'rtacha ko'rsatkichlari o'quvchilarning 17,9 foizida yetakchilik qilgan. Ushbu o'quvchilarda moddiy farovonlikka bo'lgan talab, tanlagan kasbidan qoniqish hisobiga moddiy rag'bat olish kabi motivlar kasb tanlashga turtki bo'lganligi aniqlandi. "Kasbning obro'si" motivi esa past ko'rsatkichni, yani 8,5 foizni tashkil qildi. Bunga kasbning jamiyatdagi obro'si, mashhurligi sabab bo'lishi mumkin.



2-rasm. 10-sinf o'quvchilarining kasb tanlash motivlarining foiz ko'rinishidagi nisbati

Munozara. Tadqiqotimizning 2-guruh 10-sinf o'quvchilarida ish bilan munosabat motivi ustunlik qildi. Ularning 64,1 % i ish bilan munosabat orqali o'zlarining shaxsiyatlarini namoyon qilishdan zavqlanishni xohlashadi. Kasbga nisbatan ijobiy munosabat motivining o'rtacha ko'rsatkichlari 20,5% ni tashkil qildi. Kasbning obro'si va moddiy farovonlik motivining ko'rsatkichlari past darajani ko'rsatdi. Bu ularda kasb tanlash motivlarining individual ekanligini ko'rsatib berdi.

Psixologik tadqiqotimiz davomida har ikki guruh o'quvchilarining aksariyati jamiyatdagi kasbning moddiy farovonligi va obro'sidan ko'ra ko'proq ish bilan munosabat va ijobiy salohiyat orqali o'zlarini kasbda anglashlari hamda namoyon etishga bo'lgan intilishlari aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqotimiz natijalaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, agar o'quvchi o'zida kasb tanlashning ongli motivini shakllantira olmasa, u kasb tanlashda tashqi omillarga e'tibor qaratadi va ota-onasi yoki tanishlarining fikriga asoslanadi. Natijada esa bola bo'lajak kasbining xususiyatlarini to'liq anglab yetmaydi hamda kasbning moddiy ahamiyatiga hisobga oladi, xolos. Agar o'quvchida kasb tanlashning ongli motivi shakllantirilsa, unda kasb tanlashning ichki motivatsiyasi rivojlanadi. Ongli motiv asosida tanlangan kasb orqali yuqori marralarga erishish imkoniyati oshib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kasbga yo'naltirish va kasb tanlash asoslari. F.M.Qo'chqorova 2018 yil.
2. Shaxs kasb tanlashi va kasbga yo'naltirishning psixologik mezonlari. X.A.Kadirova 2018 yil.
3. Мотивация и мотивы. Е.И.Ильин Санкт-Петербург 2002 гю

4. Isakova, M., & Xaydaraliyev, A. (2023). YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING O'RGANILISHI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6 Part 2), 16–20.
5. M.Isakova, & A.Xaydaraliyev. (2023). YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING O'RGANILISHI. Scientific Impulse, 2(13), 53–59.
6. Isakova, M. T. (2021). Socio-Psychological aspects of A Person's attitude to his mental health. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 29-36.
7. Исакова, М.Т. (2021). Эмпирическое исследование взаимосвязи отношения личности к здоровью с индивидуально-динамическими характеристиками. П, 86, 544.
8. Исакова, М. Т. (2021). Инсоннинг саломатликка муносабати билан унинг индивидуал-динамик хусусиятларининг ўзаро боғлиқлик муаммолари. Современное образование (Узбекистан), (7 (104)), 42-47.
9. Tulkinovna, I. M. A. (2021). An Empirical Study Of The Relationship Of Individual With Dynamic Characteristics As A Value To Health. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences, 9(5).
10. Исакова, М. Т. (2021). Problems Of The Relationship Of A Person's Attitude To Health With Its Individual And Dynamic Features. Современное образование (Узбекистан), (7), 42-48.
11. Исакова, М. Т. (2021). Problems Of The Relationship Of A Person's Attitude To Health With Its Individual And Dynamic Features. Современное образование (Узбекистан), (7), 42-48.
12. Исакова, М.Т. (2021). ИНСОННИНГ САЛОМАТЛИККА МУНОСАБАТИНИНГ ИНДИВИДУАЛ ДИНАМИК ХУСУСИЯТЛАРИ МУАММОСИНИ ЭМПИРИК ЎРГАНИШ. Современное образование (Узбекистан), (8 (105)), 45-52.
13. Isakova, M. (2020). Socio-Psychological Factors Are The Effect Of person's Mental Health. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 4699-4718.
14. Isakova, M. T. (2020). Factors Influencing The Mental Health Of Person. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 10-13).
15. Isakova, M. T., & Israilzhonov, S. (2020). Theoretical Interpretation Of Some Considerations On Mental Health. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 25-28).
16. Максимова, Л. А., & Исакова, М. Т. (2020). Человек как субъект социокультурного пространства: оценка жителями Узбекистана уровня влияния социокультурных факторов на их психическое здоровье. In Стратегические ориентиры современного образования (pp. 40-43).
17. Исакова, М. Т., & Максимова, Л. А. (2020). РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ВЛИЯНИЯ ДОСУГА И МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЛИЧНОСТИ В СОЗНАНИИ ЖИТЕЛЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ

СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ, КОНФЛИКТОЛОГИИ И УПРАВЛЕНИЯ: ВЗГЛЯД МОЛОДЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ (pp. 79-85).

18. Исакова, М. Т. (2019). факторы творческого мышления когнитивного развития дошкольников. In Психологическое благополучие современного человека (pp. 627-630).

19. Исакова, М.Т. (2018). СВЯЗЬ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ С АСТРОЛОГИЧЕСКИМИ ФАКТОРАМИ. Мировая наука, (6 (15)), 213-215.

20. Исакова, М.Т. (2012). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ НА ПСИХИКУ ЧЕЛОВЕКА, ПОНЕСШЕГО УТРАТУ БЛИЗКОГО ЧЕЛОВЕКА. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 17(3-4), 24-26.

21. Исакова МТ. ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ И ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ СФЕРЫ ЧЕЛОВЕКА. Известия ВУЗов (Кыргызстан). 2012(2):242-4.

22. Исакова, М.Т. (2011). ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ КАК ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ЯЗЫКОВОГО ФАКУЛЬТЕТА. ББК 81.2 Р Ж 71, 22, 261.

23. Tulkinovna, I. M. THE ROLE OF THE FAMILY ENVIRONMENT IN THE PROTECTION OF HUMAN MENTAL HEALTH.

24. Isaqova, M. T. (2007). Etnopsixologiya. Toshkent: Iqbol-Turon.

25. Isakova Muazzam To'lqinovna //Additional Learning is as a Factor of Mental Health// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 05, 2020. 7330-7335 pages.

26. Исакова М.Т. //ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ВЕДУЩИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ МЕЖДУ ОТНОШЕНИЕМ К ЗДОРОВЬЮ И ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ// ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. 2021, Выпуск 23. 144-149 стр.

27. M.T.Isakova //SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A PERSON'S ATTITUDE TO HIS MENTAL HEALTH// Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 4, April, 2021. 29-36 pages.

28. Исакова М.Т //Инсон рухий саломатлигининг ижтимоий-психологик омиллари// Монография. Тошкент 2021.

29. Исакова Муаззам Тўлқиновна //ДИНИЙ ЭЪТИҚОД ШАХС РУХИЙ САЛОМАТЛИГИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА// "PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL. Maxsus son, № 2, 2020. 68-72 бетлар.

30. M.T.Isakova //DAVLAT BOSHQARUVI VA SHAXS RUHIY SALOMATLIGI// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2020-yil, 4-son. 158-162 betlar.

31. Isakova Muazzam Tulkinovna //HUMAN HEALTH AND PSYCHE// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. OCTOBER, 2020-V. ISSN 2181-9750. 40-46 pages.

32. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.

33. Isakova Muazzam Tulkinovna //DEPENDENCE OF A PERSON'S ATTITUDE TO HEALTH ON AGE CHARACTERISTICS// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. JULY, 2021-7/2. ISSN 2181-9750. 34-40 pages.

34. Исакова Муъазам Тулкиновна //ИНСОННИНГСАЛОМАТЛИККА МУНОСАБАТИНИНГ ИНДИВИДУАЛ ДИНАМИК ХУСУСИЯТЛАРИ МУАММОСИ ВА УНИ ЭМПИРИК ЎРГАНИШ// ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ. 2021,8 (105). 45-52 бетлар.

35. М.Т.Исакова //ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ОТНОШЕНИЯ ЛИЧНОСТИ К ЗДОРОВЬЮ С ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ// Психология управления персоналом и экосистема наставничества в условиях изменения технологического уклада. Вторая международная научно-практическая конференция. 11-12 ноября 2021 г., Нижний Новгород. 598-606 стр.

36. Исакова М.Т //ШАХС РУХИЙ САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР// АҲОЛИНИНГ ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИГИ - ЖАМИЯТ ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ОНЛАЙН АНЖУМАНИ. Фарғона. 20.05.2020. 5-9 бетлар.

37. Исақова М.Т. //БАНДЛИК ШАХС РУХИЙ САЛОМАТЛИГИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА// Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари: халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 27 май 2020 йил. Москва. 714-717.

38. Исакова М.Т. //ИЖТИМОЙ НАЗОРАТНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ БОРАСИДА АЙРИМ ФИКРЛАР// АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА. Конференция, Ташкент-2018. 79-81 бетлар.